



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-95-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Tumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-258-sonli qarorining 5-bandi ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-258-sonli qarorinining 5-bandi ijrosini ta'minlash borasida Sho'rchi tumanida “Temir daftар”га киритилган hamda bir martalik moddiy yordam pullarini olmagan, ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy farovonlik darajasini oshirish, keksa avlod vakillari manfaatlarining himoya qilinishini, shuningdek, insonparvarlik, mehr-oqibat, sahovat tadbirlarini izchil davom ettirish maqsadida moddiy yordam ajratish to'g'risidagi tumandagi sektor rahbarlarining hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi takliflarini tinglab, O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-258-sonli qarorining 5-bandi topshiriqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydag‘i PQ-258- sonli qarorining 5-bandisi:

a) kichik bandiga ko‘ra, “Temir daftar”ga kiritilgan hamda mazkur qarorga asosan bir martalik moddiy yordam pullarini olmagan 1-sektorda 17 ta oilaning 56 nafar, 2-sektorda 1 ta oilaning 4 nafar, 3-sektorda 12 ta oilaning 42 nafar va 4-sektorda 6 ta oilaning 20 nafar a’zolari, jami 36 ta oilaning 175 nafar a’zolarining har biriga;

b) kichik bandiga asosan, tumandagi sektor rahbarlari tomonidan mahallalarda qo‘shimcha o‘tkazilgan o‘rganishlar va uning natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydag‘i PQ-258-sonli qarori bilan bir martalik moddiy yordam pullarini olmagan, ya’ni 1-sektorda 256 ta oilaning 1085 nafar, 2-sektorda 135 ta oilaning 584 nafar, 3-sektorda 141 ta oilaning 618 nafar va 4-sektorda 174 ta oilaning 771 nafar a’zolari, jami 706 ta oilani 3058 nafar a’zolarining har biriga, jami tuman bo‘yicha 742 ta oilaning 3180 nafar a’zolarining har biriga 20 (yigirma) kilogrammdan un tarqatish takliflari inobatga olinsin va ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho‘rchi tumani bo‘linmasi, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi (SH.Safarov)ga Sho‘rchi tumanida mahallalar kesimida shakllantirilgan ro‘yxat asosida 742 ta oilaning 3180 nafar a’zolariga 63600 (oltmish uch tonna olti yuz) kilogramm un mahsulotlarini tarqatish uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan 318 000 000 (uch yuz o‘n sakkiz million) so‘m ajratilsin.

4. “Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘linmasi qoshidagi “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasi hisobidan kelib tushgan 318 mln so‘m maqsadli mablag‘ amaldagi qonunchilikka asoslangan holda un xarid qilish bo‘yicha birja savdolarida ishtirok etgan va tiket yutgan “Sho‘rchi farovon” MCHJ, “Asror Ahror Abror Ziyo” X/K, “Javohir Zeramaks savdo” OK, “Humo Biznes” MCHJ, “Muxammadazizbek Nur” OK, lariga un xarid qilish uchun ajratilsin.

5. “Mahalla” xayriya jamoat fondi Sho‘rchi tumani bo‘linmasi (A.Nurbayev)ga “Temir daftar”ga kiritilgan 742 ta ehtiyojmand oilalarning

3180 nafar oila a'zolarining har biriga 20 kilogrammdan bepul un bilan ta'minlash maqsadida "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasi huzurida tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tomonidan "Sho'rchi farovon" MCHJ bilan shartnoma tuzib, ajratilgan 71 mln. (yetmish bir million) so'm, "Asror Ahror Abror Ziyo" X/K bilan shartnoma tuzib, ajratilgan 68 mln 200 ming (oltmish akkiz million ikki yuz ming) so'm, "Javohir zeramaks savdo" OK bilan shartnoma tuzib, ajratilgan 42 mln. 100 ming (qirq ikki million bir yuz ming) so'm, "Humo Biznes" MCHJ bilan shartnoma tuzib, ajratilgan 57 mln. 600 ming (ellik yetti million olti yuz ming) so'm, "Muxammadazizbek Nur" OK bilan shartnoma tuzib, ajratilgan 79 mln. 100 ming (yetmish to'qqiz million bir yuz ming) so'm pul mablag'larini qonunda belgilangan tartibda xarid qilingan un mahsulotini tarqatilishi uchun kichik ishchi guruhlariga dalolatnoma asosida topshirilishini ta'minlash yuklatilsin.

6. Tumandagi sektor rahbarlari (B.Xudoyberganov, F.Xoliqov, D.Qurbanov, Sh.Zokirov)ga 2022-yil davomida mahalla fuqarolar yig'lnlari raislari, hokim yordamchilari bilan birlgilanishda har bir mahalla fuqarolar yig'lnlarida ehtiyojmand oilalarning ahvolini muntazam ravishda o'rganib, takliflar kiritib borish;

mahallalarda aniqlanib, shakllantirilgan ro'yxatning to'g'rilibini o'rganib, doimiy nazoratga olish;

tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rribbosari J.Norqulov, tuman hokimining o'rribbosari N.Mamadiyeva, tuman mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (A.Nurbayev), "Mahalla" xayriya jamoat fondi Sho'rchi tuman bo'linmasi, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi (SH.Safarov), mahalla raislari hamda mahallalardagi hokim yordamchilariga sektor rahbarlari va mahalla raislari tomonidan mahallalarda aniqlanib, shakllantirilgan ro'yxatga muvofiq, bir martalik moddiy yordam pulini olmagan fuqarolarning har biriga 20 (yigirma) kilogrammdan un mahsulotini manzilli yetkazib berish vaifasi topshirilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash tuman sektor rahbarlari va

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulovga, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo‘ranov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



Xudoyberganov B.X